



NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

NAMANGAN VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI

*2023- yil
yanvar-iyun*



NAMANGAN VILOYATINING DOIMIY AHOLISI.

2023- yil 1- iyul holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Namangan viloyatida 2023- yil 1- iyul holatiga doimiy aholi soni **3028,3** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **30,8** ming kishiga yoki **1,0 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **1964,5** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **64,9 %**), qishloq aholisi soni **1063,8** ming kishi (**35,1 %**)ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni

3028,3 ming kishi

Tabiiy o'sish

+31,7 ming kishi

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi.

Shahar



64,9%

Qishloq



35,1%


Namangan viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar.

2023- yil yanvar-iyun, ming kishi



Doimiy aholi sonining taqsimlanishi.

2023- yil 1-iyul holatiga



Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi.

1-iyul holatiga, ming kishi

	2022- yil	2023- yil	O'sish sur'ati, % da
Namangan viloyati	2959,3	3028,3	102,3
<i>shahar:</i>			
Namangan sh.	668,5	686,9	102,7
<i>tumanlar:</i>			
Mingbuloq	132,4	135,3	102,2
Kosonsoy	219,9	225,0	102,3
Namangan	185,7	190,2	102,4
Norin	170,5	173,9	102,0
Pop	228,8	233,3	102,0
To'raqo'rg'on	236,3	242,2	102,5
Uychi	224,3	229,4	102,3
Uchqo'rg'on	179,6	183,3	102,1
Chortoq	207,7	212,1	102,1
Chust	276,7	282,2	102,0
Yangiqo'rg'on	228,9	234,5	102,4


Namangan viloyati bo'yicha aholi zichligi.

Namangan viloyatida 2023- yil 1-iyul holatiga 1 kvadrat kilometrda o‘rtacha **407,0** kishi to‘g‘ri kelgan. Bu esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **9,5** kishiga ortgan (2022- yilda 1 kv.km.ga **397,5** kishi).

Hududlar bo‘yicha qaraydigan bo‘lsak, aholi zichligini eng yuqori ko‘rsatkichi Namangan shahrida **4579,3** kishi, Namangan tumanida **951,0 kishi**, To‘raqo‘rg‘on tumanida **897,0** kishi, Norin tumanida **828,1** kishini tashkil etgan bo‘lsa, eng past ko‘rsatkichlar Pop tumanida **80,2** kishi, Chust tumanida **300,2** kishini tashkil etgan.


Namangan viloyati bo‘yicha aholi zichligi dinamikasi.

1 yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to‘g‘ri keladigan aholi soni, kishi



QAYD ETILGAN TUG‘ILISHLAR.

1-iyul holatiga



Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti.


2023- yil yanvar-iyun, kishi

Namangan shahar	10192	30,1 ‰
Chust	3347	24,0 ‰
To‘raqo‘rg‘on	3286	27,5 ‰
Uychi	2814	24,9 ‰
Yangiqo‘rg‘on	2786	27,1 ‰
Kosonsoy	2737	24,7 ‰
Pop	2704	23,5 ‰
Namangan	2283	24,3 ‰
Chortoq	2240	21,4 ‰
Uchqo‘g‘on	2026	22,4 ‰
Norin	1923	22,4 ‰
Mingbuloq	1639	24,5 ‰

2023- yil yanvar-iyun oylarida **38,0** mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti **25,4** promilleni tashkil etdi hamda bu ko‘rsatkich 2022- yilga nisbatan **0,9** promillega ko‘payganligini kuzatildi (2022- yilda **24,5** promilleni tashkil etgan).


VAFOT ETGANLAR

1-iyul holatiga



Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti.


2023- yil yanvar-iyun, kishi



2023- yilning yanvar-iyun oylarida **6,3** mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti **4,2** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan -0,1 promillega kuzatildi (2022- yilning yanvar-iyun oylarida **4,3** promille bo'lgan).

O‘limning asosiy sabablar bo‘yicha taqsimlanishi.


2023- yil yanvar-iyun, kishi




2023- yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **52,6 %** i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **8,2 %** i – o‘simtalardan, **10,8 %** i – nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, **4,7 %** i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **4,4 %** i – ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, **1,6 %** i – yuqumli va parazitlar kasalliklardan, **17,7 %** i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

QAYD ETILGAN NIKOHLAR

1-iyul holatiga




Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti.



2023- yilning yanvar-iyun oylarida **6,5** mingta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **4,4** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **-0,4** promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-iyun oylarida **4,8** promille bo'lgan).

NIKOHDAN AJRALISHLAR

1-iyul holatiga



Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti.

2023- yil yanvar-iyun, birlik

Namangan shahar	515	1,5 ‰
Pop	216	1,9 ‰
Chust	211	1,5 ‰
To'raqo'rg'on	205	1,7 ‰
Uychi	181	1,6 ‰
Namangan	172	1,8 ‰
Kosonsoy	158	1,4 ‰
Norin	149	1,7 ‰
Chortoq	146	1,4 ‰
Uchqo'g'on	139	1,5 ‰
Yangiqo'rg'on	131	1,1 ‰
Mingbuloq	117	1,8 ‰

2023- yil yanvar-iyun oylarida **2,3** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,6** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **0,1** promillega oshganligi kuzatildi (2022- yil yanvar-mart oylarida **1,5** promille bo'lgan)

AHOLI MIGRATSIYASI.

(Doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar)

2023- yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar jami soni **1191** kishini, Ko'chib ketganlar soni esa **2 140** kishini tashkil etdi.


Namangan viloyati bo'yicha ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni.

2023- yil yanvar-iyun, kishi

	Ko'chib kelganlar	Ko'chib ketganlar
	jami	jami
Namangan viloyati	1191	2140
shahar:		
Namangan shahri	429	476
tumanlar:		
Mingbuloq	4	106
Kosonsoy	59	111
Namangan	54	106
Norin	86	199
Pop	103	229
To'raqo'rg'on	92	92
Uychi	102	139
Uchqo'rg'on	112	172
Chortoq	15	133
Chust	51	246
Yangiqo'rg'on	84	131


JAMI KO'CHIB KELGANLAR.

1-iyul holatiga



Ko'chib kelganlar soni va koeffitsiyenti.


2023- yil yanvar-iyun, kishi



2023- yilning yanvar-iyun oylarida **1,2** mingta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti **0,8** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **-0,1** promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-mart oylarida **0,9** promille bo'lgan).


JAMI KO‘CHIB KETGANLAR.

1-iyul holatiga



Ko‘chib ketganlar soni va koeffitsiyenti.

2023- yil yanvar-iyun, kishi



2023- yilning yanvar-iyun oylarida **2,1** mingta ko‘chib ketganlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga ko‘chib ketish koeffitsiyenti **1,4** promilleni tashkil etgan hamda 2022-yilga nisbatan **-0,4** promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-iyun oylarida **1,8** promille bo‘lgan).

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar.

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Ko'chib kelganlar soni – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar

organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

Ko'chib ketganlar soni – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.

Aholining migratsion o'sishi (farqi) – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi

Tel: 69 227-84-91